Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	



CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ- ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI



Haydarova Mohichehra Xurram qizi

Toshkent xalqoro kimyo Universitetining
2-kurs magestranti,

Annotatsiya. Chakana savdo korxonalarida iste'molchilarning iqtisodiyoti va bozor tamoyillari asosida tartibga solishning bugungi bosqichida to'g'ridan to'g'ri tovar ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish va sotish strategiyasini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda korxonaning faoliyati bozorni o'rganish, tadqiq qilish, ishlab chiqarilgan mahsulotning reklamasini uyushtirish hamda tovar iste'molchining qo'lga yetib boruniga qadar bo'lgan barcha bosqichlarda ishtirok etishdan iborat bo'ladi.

Kalit so'zlar: chakana savdo korxonalari, iste'molchilar xulq-atvori, iqtisodiy tamoyillar, bozor tamoyillari.

Abstract. At the current stage of regulating retail enterprises based on the principles of consumer economics and market mechanisms, it is advisable to improve the production and sales strategy of direct producers of goods. In this case, the activities of the enterprise include studying the market, conducting research, organizing advertising of its products, and participating in all stages of the process until the product reaches the consumer.

Key words: retail trade, consumer behavior, consumer economics principles, market mechanisms.

Аннотация. На современном этапе регулирования деятельности предприятий розничной торговли, основанном на принципах потребительской экономики и рыночных механизмов, целесообразно совершенствовать производственно-сбытовую стратегию непосредственных производителей товаров. В этом случае деятельность предприятия заключается в изучении рынка, проведении исследований, организации рекламы своей продукции и участии на всех этапах технологического процесса до момента поступления товара к потребителю.

Ключевые слова: розничная торговля, поведение потребителей, принципы экономики потребления, рыночные механизмы.

KIRISH

Chakana savdo korxonalari sharoitida xaridorga bo'lgan e'tibor katta ahamiyatga ega bo'lib, marketing ustunlaridan biri hisoblanadi. Xaridorlarning ehtiyojini qondirish — marketing va bozor iqtisodiyotining o'zagidir. Marketing, bir tomondan, bozorni, talab, didlar va ehtiyojlarni mukammal va har taraflama o'rganishni, ishlab chiqarishni shu talablarga yo'naltirishni, mahsulotlarni aniq iste'molga mo'ljallangan holda ishlab chiqarishni; boshqa tomondan esa, bozor talabini, ehtiyojlarni va iste'molchilar afzalliklarining shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Har qanday firma iqtisodiyotda samarali faoliyat yuritishi uchun o'z marketing strategiyasini tanlab olishi lozim. Bunda korxonaning imkoniyatlari bozor talabiga muvofiqlashtirilib, marketing strategiyasi bozorni tadqiq qilish va istiqbolni belgilash, tovar va iste'molchilarni o'rganish asosida ishlab chiqiladi.

Iste'molchilarning xulq-atvori milliy madaniyatning bir qismi bo'lib, turmush tarzi va identifikatsiyaga ta'sir ko'rsatadi. Iste'molchilarning mahsulot tanlashdagi afzalliklari milliy o'ziga xoslikni, urf-odatlarini va an'analarni shakllantirishi yoki o'zgartirishi mumkin. Ommaviy iste'molni shakllantirish va ijtimoiy hayotni tijoratlashtirishga oid global tendensiyalar O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy dinamikasiga ta'sir ko'rsata boshladi. Iste'molchilar talablarining kuchayishi va yangi iste'mol standartlarining shakllanishi, ayniqsa yoshlar o'rtasida, an'anaviy qadriyatlarining o'zgarishiga olib kelmoqda.



Moddiy ne'matlarga ega bo'lish asosida jamiyatning tabaqalanishi yuzaga kelib, ijtimoiy qatlamlar o'rtasida ramziy chegaralar shakllanadi. Natijada ijtimoiy tabaqalanish tobora ko'proq moddiy maqom va brendlarga asoslanadi, bu esa jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarining qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonda iste'mol axloqining keng tarqalishiga ommaviy kommunikatsiyalar va ommaviy axborot vositalarining o'sishi sezilarli darajada yordam bermoqda. Iste'molni ramziylashtirishning yangi mexanizmlari shakllanmoqda: bunda ob'ektlar nafaqat tovarlar, balki maqom va muvaffaqiyatning ijtimoiy belgilariga ham aylanadi. Shunday madaniyat shakllanmoqdaki, unda tovarlarni sotib olish va iste'mol qilish an'anaviy qadriyatlarni almashtirib, shaxs hayotida markaziy o'ringa chiqmoqda.

Iste'molni institutsionallashtirishning asosiy mezonlaridan biri — ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatuvchi va iste'mol mafkurasini shakllantirishning yangi usullarini rag'batlantiruvchi marketing kommunikatsiyalarining sanoatlashtirilishidir. O'zbekistonda bu jarayon jahon brendlarining ommalashuvi, dam olishning an'anaviy shakllarining tijoratlashuvi va marketing strategiyalarining ijtimoiy hamda madaniy makonlarga integratsiyalashuvi orqali namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik olimlardan Guy (2006) chakana savdoda rejalashtirishning aralashuvi asosan iqtisodiy holat hisoblanib, chakana rejalashtirish siyosati chakana sektorning o'sishi va o'zgarishiga imkon beradi, shu bilan birga rentabellikning qoniqarli darajasini saqlab qoladi. Rentabellikni oshirish milliy va mahalliy iqtisodiyotga kengroq foyda keltirishi va jamoat manfaatlariga mos kelishi mumkin.

Reinartz (2011) global va globallashtayotgan chakana savdoda korxonalar duch keladigan muammolar asosan yetkazib berish bilan bog'liq bo'lib, boshqa davlat firmalari o'rtasida yuzaga keladi. O'ziga xos milliy bozorlarning xususiyatlariga javob beradigan chakana savdo ehtiyojlari chakana savdo korxonalarining muvaffaqiyati uchun juda muhimdir, deb keltirgan.

Krasnyuk va boshqalar (2017) chakana savdoda innovatsion rivojlanishning yana bir usuli — marketing innovatsiyasidir. Ularning fikricha, bunday innovatsiyalar aniq cheklovga ega emas; bu esa har qanday xaridorni o'z mahsulotini topishga va sotib olingan narsadan foyda olishga majbur qiladigan, shu bilan birga hissiy qoniqishni his qiladigan yangiliklarni yaratish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Rijix va boshqalar (2022) korxonada ishlab chiqarilayotgan tovarlar va taqdim etilayotgan xizmatlarga doimiy talabni boshqarish uchun marketologlar iqtisodiyot va biznesni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida harakat qilishlari va ushbu shartlarda samarali reklama kampaniyasi rejasini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Bobkov (2017) chakana savdo korxonasi faoliyati — foyda olish maqsadida tegishli mahsulotlarni sotib olish, qayta ishlash, saqlash va sotishni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish jarayoni sifatida qaralishi mumkin. Bu jarayonni bir kishi tomonidan amalga oshirish juda murakkab jarayondir. Xorijda "bir kishidan iborat firma" tushunchasi mavjud bo'lib, albatta klassik g'oyalarga to'g'ri kelmaydi; ammo turli mamlakatlarda ko'plab yakka tartibdagi tadbirkorlarning mavjudligi ularni chakana savdo korxonasini rivojlantirishning dastlabki bosqichi sifatida aniqlashga imkon beradi, deb hisoblaydi.

O'zbekistondan olimlardan Abdugarimov (2011) asarlarida mamlakatimizda savdo iqtisodiyotining asosiy muammolari va savdo korxonalarining iqtisodiy rentabelligi hamda iqtisodiy samaradorligi, savdoda bozor mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Xolmamatovning (2021) ilmiy izlanishlarida ulgurji savdoda marketing logistikasini rivojlantirish va servis strategiyasini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Mamatqulova (2022) ilmiy tadqiqotlarida xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish jarayonini mijozlarning individual xohish-istaklari negizida takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Bu global tendensiyalar iste'mol qadriyatlariga yo'naltirilgan yangi turdagi madaniy o'ziga xoslikning shakllanishiga yordam beradi. Iste'molchi xulq-atvori — iste'molchilarning tovar va xizmatlarni tanlash, sotib olish, ulardan foydalanish va foydalanishni to'xtatish jarayonidagi xatti-harakatlarini o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Uning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimizning olis hududlari, shahar va tuman markazlarida faoliyat yuritayotgan chakana savdo korxonalarida savdo madaniyati tobora yuksalib borayotganini kuzatish mumkin.

Bunga quyidagilar misol bo'ladi:

- savdo shoxobchalarida keng va barqaror tovarlar assortimentining mavjud bo'lishi;
- savdo xizmatining ilg'or usullaridan foydalanilishi;
- xaridorlarga qo'shimcha xizmatlarning taqdim etilishi;
- savdo xodimlarining yuqori kasbiy mahorati, ularning xaridorlarga nisbatan xushmuomalali va e'tiborli bo'layotganligi;



• ma'lum tovarlarni sotish tartib-qoidalari (jumladan, plastik kartalar orqali xarid qilish mumkinligi) haqida xaridorlarni xabardor qilish;

• savdo shoxobchalari atrofi va savdo maydonlarining yaxshi sanitariya holatida saqlanishi va boshqalar.

Chakana savdo korxonasi tomonidan samarali reklama o'tkazish uchun zamonaviy reklama yo'nalishlari va texnologiyalarini o'rganish vazifasi qo'yildi. Natijada jamiyatning onlayn reklamaga bo'lgan ehtiyoji hisobga olingan holda media-reja amaliy ishlab chiqildi.

1. Individualizatsiya (shaxsiy xususiyatlar)

• Iste'molchilarning xatti-harakatlari ularning yoshi, jinsi, kasbi, daromad darajasi, ta'lim darajasi kabi individual omillarga bog'liq.

• Psixologik omillar: motivatsiya, idrok, o'z-o'zini anglash, hayotga bo'lgan munosabat.

2. Sotsial omillar

• Oila, do'stlar va hamkasblarning ta'siri.

• Ijtimoiy maqom va guruhlarining iste'molchining qaror qabul qilishiga ta'siri.

• Madaniyat va submadaniyatlarning roli.

3. Iqtisodiy omillar

• Daromad darajasi, xarajat imkoniyatlari va bozor sharoitlari.

• Narxning xatti-harakatga ta'siri, aksiyalar va chegirmalarning iste'molchiga bo'lgan ta'siri.


4. Psixologik omillar

• Motivatsiya: iste'molchini harakatga keltiradigan sabablar.

• Talab va ehtiyojlar ierarxiyasi (Maslou piramidasi).

• Qaror qabul qilish jarayonida iste'molchining kognitiv va emotsional yondashuvi.

Tadbirkorlar va kompaniyalar iste'molchi xulq-atvorining xususiyatlarini chuqur o'rganib, mahsulot va xizmatlarni bozorga muvaffaqiyatli taqdim etishlari mumkin.



1-rasm. Chakana savdo korxonalarida kichik biznes subyektlari faoliyatiga qo'llash tartibi



Chakana savdo korxonasida ijtimoiy-axloqiy mezonlarga erishishga intilish quyidagi maqsadlarni belgilaydi:

- xaridorlarni o'qitish, ularning oqilona iste'mol haqidagi bilim darajasini oshirish;
- aholi guruhlarini ijtimoiy foydali harakatlarga rag'batlantirish;
- irratsional iste'molchi odatlarini oqilona odatlarga o'zgartirish;
- mavjud qarash va g'oyalarni yanada ilg'or qarashlar bilan almashtirish.

Marketing evolyutsiyasining to'rtinchi bosqichi (90-yillar – hozirgi davr) marketing tamoyillarining jamiyat hayotining turli sohalariga chuqur kirib borishi bilan tavsiflanadi. Korxonalar asta-sekin barcha maqsadli xaridorlarga bir xil mahsulot sotishdan voz kechib, ma'lum bir xaridorning ehtiyojlariga e'tibor qaratishga, iste'molchining individual ehtiyoj va didini qondirishga o'tmoqda.

Marketing faoliyatining turli yondashuvlari mavjud, masalan:

- supermarketing — faqat bitta ehtiyojni qondirish uchun emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta iste'molchi muammolarini hal qilishga yordam beradigan keng qamrovli taklifni yaratishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar majmui;
- multimarketing — mahsulotning ko'p kanalli taqsimlanishini ta'minlaydigan ko'p darajali marketing (multilevel marketing, MLM);
- turbomarketing — yangi mahsulotni yaratish vaqtini qisqartirish, ya'ni aniqlangan talabga tezkor javob berish;
- maqsadlilik — tor maqsadli marketing dasturlari orqali maqsadli auditoriyaga tezkor ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi yondashuv;
- individual marketing — tor doiradagi odamlar yoki hatto bitta iste'molchining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, imkon qadar batafsil bozor segmentatsiyasiga asoslangan faoliyat. Shaxsiylashtirilgan marketing ma'lumotlar bazasi marketingi deb ham yuritiladi (garchi bu tushunchalar farqlansa ham: ma'lumotlar bazasi marketingi — individual marketingni amalga oshirish vositasi yoki texnologiyasidir).

Shaxsiylashtirilgan marketing faoliyati quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- mijozlarni segmentatsiyalash;
- xabardor qilish;
- ishtirok etish;
- mijoz bilan munosabatlarni mustahkamlash.

Zamonaviy sharoitda korxonada marketingning strategik maqsadlari iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish, sotuv hajmining o'sishini ta'minlash, bozordagi o'rinni mustahkamlash va raqobatbardosh ustunlikka erishishdan iborat. Marketing konsepsiyasi samarali bo'lishi uchun korxona mijozlar ehtiyojlarini aniqlashi va ularni imkon qadar to'liq qondirishi zarur. Shu sababli, iste'molchilarni o'rganish marketing strategiyasining ajralmas qismidir. Marketing strategiyasi kompaniyaning umumiy strategiyasining muhim elementlaridan biri bo'lib, u iste'molchilar, raqobatchilar va sotish bozori nuqtayi nazaridan bozordagi asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi.

1 - jadval. Mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (foizda)

№	Ko'rsatkichlar	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi, (+,-)
1	YalIM	62,4	56,0	55,7	54,9	51,8	-10,6
2	Sanoat	37,4	25,8	27,9	27,0	25,9	-11,5
3	Qurilish	73,2	75,8	72,5	72,4	71,6	-1,6
4	Bandlik	76,3	76,2	74,5	74,4	74,4	-1,9
5	Eksport	27,2	27,0	20,5	22,3	29,5	2,3
6	Import	56,2	61,6	51,7	48,7	49,4	-6,8

Chakana savdo shoxobchalarining ma'lumotlariga ko'ra, sutning biologik xususiyatlaridan biri — uning tovar sifatidagi hayotiy davrining qisqa bo'lishi va mahsulotni uzoq muddat saqlab bo'lmasligidir. Salas-Méndez va boshqalar tomonidan olib borilgan "Sutni saqlash muddatini uzaytirish uchun mikroblarga qarshi vositalar bilan himoyalash" nomli tadqiqotda sutni texnik talablarga mos sharoitda (maxsus sovutgichlarda) va 20°C dan past haroratda saqlanganda ko'pi bilan 4 kun saqlash mumkinligi aniqlangan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, chakana savdo korxonalarida iste'molchilar xulq-atvori savdo hajmining barqaror o'sishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Iste'molchilarning individual, ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik xususiyatlari ularning xarid qilish qaroriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholining ehtiyojlari va afzalliklari tobora o'zgarib borayotgani, raqobatning kuchayishi va raqamli texnologiyalar kirib kelishi savdo korxonalaridan zamonaviy yondashuvlar talab etilishini taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari savdo korxonalarida marketing strategiyalarining to'g'ri tanlanishi va iste'molchi xulq-atvori bo'yicha muntazam kuzatuvlar olib borilishi savdo hajmini oshirishda muhim o'rin tutishini tasdiqladi. Xususan, assortimenti keng bo'lgan savdo shoxobchalarida, xizmat ko'rsatish sifati yuqori bo'lgan do'konlarda hamda xaridorlarga qulay sharoitlar yaratilgan tarmoqlarda savdo hajmining ijobiy dinamikasi kuzatildi.

Iste'molchilarning axloqiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarining o'zgarishi, yoshlar orasida yangi iste'mol standartlarining shakllanib borishi bozor mexanizmlarida yangi yondashuvlarni talab qiladi. Raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun chakana savdo korxonalari bozor talabini chuqur o'rganishi, reklama, servis, assortiment siyosatini takomillashtirishi va raqamli marketing imkoniyatlaridan keng foydalanishi lozim.

Takliflar

1. Iste'molchi xulq-atvorini o'rganish bo'yicha muntazam monitoring tizimini joriy etish.
Savdo korxonalari o'z mijozlarining ehtiyojlari, xarid odatlari, daromad darajasi, demografik xususiyatlari bo'yicha doimiy ma'lumot to'plab borishi lozim.
2. Xaridorlar uchun qulay xizmat ko'rsatishni kengaytirish.
Tezkor xizmat, plastik karta orqali to'lov imkoniyati, mobil ilovalar, elektron navbat kabi mexanizmlar iste'molchi qoniqishini oshiradi.
3. Assortiment siyosatini bozor talabidan kelib chiqib optimallashtirish.
Aholining iste'mol xatti-harakati va daromad darajasi tahlil qilinib, har bir hudud yoki do'kon uchun moslashtirilgan assortiment shakllantirilishi kerak.
4. Raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish.
Ijtimoiy tarmoqlar, kontekstli reklama, SEO, SMM orqali maqsadli auditoriyani aniqlash va ularga yo'naltirilgan marketing kampaniyalarini tashkil etish zarur.
5. Xaridorlarga qo'shimcha servis turlarini taklif qilish.
Bepul yetkazib berish, mahsulotni qaytarish tizimi, maslahat xizmati, kafolatli xizmat iste'molchi ishonchini oshiradi.
6. Savdo xodimlarining kasbiy malakasini oshirish.
Xushmuomalalik, xizmat ko'rsatish madaniyati, zamonaviy savdo texnologiyalarini o'rgatish bo'yicha treninglar tashkil etilishi tavsiya etiladi.
7. Sifat nazorati va sanitariya sharoitlarini kuchaytirish.
Ayniqsa biologik tez buziladigan mahsulotlar (sut, go'sht, sabzavot) uchun sovutgichlar, saqlash sharoitlari va yaroqlilik muddatlari qat'iy nazorat qilinishi lozim.
8. Individual marketing va shaxsiylashtirilgan takliflarni keng qo'llash.
Mijozlarning xarid tarixiga asoslangan chegirmalar, bonuslar va aksiyalar savdo hajmini oshirishga xizmat qiladi.
9. Mahalliy iste'molchilar qadriyatlarini hisobga olgan holda reklama siyosatini takomillashtirish.
Urf-odatlar, madaniy xususiyatlar, milliy brendlar va mahalliy mahsulotlarga bo'lgan talabni e'tiborga olish zarur.
10. Raqobat muhitida strategik ustunlik yaratish uchun innovatsion xizmatlarni joriy etish.
O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish zonalar, avtomatlashtirilgan kassalar, mobil ilovalar orqali xarid tizimi kabi yechimlar samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulkarimov F.B. (2011). Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand: SamISI. – 156 b.
2. Deloitte. (2023). [Global Marketing Trends 2023](#).
3. Guy C. (2006). [Planning for Retail Development: A Critical View of the British Experience](#). London: Routledge.
4. Mamatqulova Sh.J. (2022). Chakana savdoda aholiga savdo xizmati ko'rsatishda merchendayzingning o'rni va ahamiyati. Logistika va iqtisodiyot, 1-son.
5. Reinartz W., et al. (2011). [Retailing innovations in a globalizing retail market environment](#). *Journal of Retailing*, 87(S1), S53–S66.
6. Saydullaev Sh. (2023). Savdo xizmatlarini takomillashtirish asosida savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirish. *Economics and Innovative Technologies*, 11(4), 187–195.



7. Shadieva L.A. (2023). Marketing strategiyasidan foydalanish – savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda ustuvor yo'nalish. Journal of Marketing, Business and Management, 2(9), 162–167.
8. Shaymatova X., Yo'ldoshev U., Xaitov O.N. (2023). O'zbekiston Respublikasining chakana savdo korxonalarida innovatsion xizmatlar ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(4), 93–96.
9. Sultanova N.U. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana savdo korxonalarida raqobatbardoshlik. Raqamli iqtisodiyot (Sifrovaya ekonomika), 2, 28–34.
10. Xolmamatov D.X. (2021). Ulgurji savdoda marketing logistikasini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3 (may–iyun).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
